

MUSIQA DARSLARI TA'LIM JARAYONIGA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

Jamshid Olimboyo'g'li Shomurodov

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Jamshidshomurodov772@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqa ta'limi jarayonlarida kognitiv texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarga badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini taqdim qilishda kognitiv texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, kognitiv texnologiyalar bilan samarali ishlash natijasida kognitiv tafakkurning rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy-estetik, kognitiv, texnologiya, kompetensiya, tafakkur, multimediya, nafosat, madaniy dunyoqarash, idroq, xotira.

Аннотация

В этой статье рассмотрены особенности использования когнитивных технологий в процессах музыкального образования, роль и значение когнитивных технологий в предоставлении учащимся учебных материалов художественно-эстетического содержания, развитие познавательного мышления в результате эффективной работы с когнитивными технологиями.

Ключевые слова: Художественно-эстетический, познавательный, технологический, компетентностный, мышление, мультимедиа, изысканность, культурное мировоззрение, познание, память.

Annotation

This article reflects on the peculiarities of the use of cognitive technologies in the processes of music education, the role and importance of cognitive technologies in providing educational materials of artistic and aesthetic content to students, the development of cognitive thinking as a result of effective work with cognitive technologies.

Key words: Artistic-aesthetic, cognitive, technology, competence, contemplation, multimedia, sophistication, cultural worldview, perception, memory.

Badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan kognitiv qabul qilinishi uchun kognitiv texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Kognitiv texnologiyalar o'quvchilarni madaniy nuqtai nazardan rivojlantirib, ijtimoiy-madaniy munosabatlarga kirishishlarini jadallashtiradi.

Kognitiv texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari bir vaqtning o'zida o'quvchilar bir nechta vazifalarni yecha olishlarini ta'minlashidadir. O'quvchilarda ruhiy bilish jarayonining rivojlanishi, kommunikativ ko'nikmalar, irodaviy sifatlar hamda ijodiy layoqatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarni badiiy-estetik jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy vaziyatlarni tashkil etish, mazkur vaziyatlarda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish kognitiv rivojlantirishning muhim shartidir.

Mutaxassis L.S.Vigotskiy[1], A.R.Luriya[78], A.V.Zaporojes[53] larning aniqlashlaricha, o'quvchilardagi ruhiy bilish jarayonlari nutq ishtirokida maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor ko'rinishi sifatida shakllanadi. Bunda badiiy nutq: she'r va qo'shiqlar katta ahamiyatga ega. Masalan musiqa darslarida kognitiv-lingvistik yondashuvdan foydalanish alohida samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Kognitiv texnologiyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashishda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Kognitiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlar o'quvchilarda shaxsiy sifatlarining jadal shakllanishini ta'minlab, egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning sifat jihatdan takomillashishiga xizmat qiladi. Kognitiv jarayonlarni rivojlantirib, samaradorlikni ta'minlaydi.

Ma'lumki, kognitiv texnologiyalardan musiqa darslarida keng foydalanish orqali tinglab tushunish madaniyati shakllanadi. Shunga ko'ra o'quvchilarda tinglab tushunish madaniyatini shakllantirishga oid metodik va didaktik topshiriqlar ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini asoslashga muvaffaq bo'ldik. Bunday topshiriqlar o'qituvchining kognitiv texnologiyalarni qo'llash sohasidagi kasbiy mahoratini oshirsa, o'quvchilarda topshiriqlar ustida o'ylash, obrazlarni tasavvur qilish, estetik jarayonlarni idrok etish, musiqiy va badiiy matn yoki kuy haqida fikrlash, uning mazmun mohiyatini tahlil qilish va musiqaga nisbatan emotsiya hosil bo'lishi kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kognitiv texnologiyalarni qo'llash uch yo'nalishda amalga oshadi:

- an'anaviy o'qitish jarayonida;
- multimediyali o'qitish jarayonida
- amaliy estetik faoliyatni amalga oshirish jarayonida.

Kognitiv texnologiyalarni qo'llash jarayoni kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki informatsion texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv sohalariga ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilar o'quvchilarning badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun kognitiv metodlar va texnologiyalardan unumli foydalanishlari lozim. Buning uchun pedagoglar muayyan vaziyatlarda o'quvchilar nimani bilishlari lozimligi va nimani o'rganishga ehtiyoj sezayotganliklarini aniqlab olishi muhim. Agar o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini boyitishga boshqa metodik vositalar yordamida ta'sir ko'rsata olsada, kognitiv metod va texnologiyalar vositasida ko'rsatiladigan ta'sirning samaradorligi kattaligini yaqqol ko'rishi mumkin. O'quvchilar ongida mavjud bo'lgan bilimlar bilan o'zlashtirish uchun taqdim etilgan bilimlar orasida aloqadorlik vujudga keladi.

Yangi bilimlarning vujudga kelish jarayoni badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallari bilan bevosita bog'lanadi. Natijada o'quvchilar musiqa olamiga chuqurroq singib, nimani bilib olish lozimligini anglab etadilar. Ularning idroklari o'zlashtiriladigan musiqiy bilimlarni egallash tamon yo'naltiriladi. Kognitiv metodlarning mohiyati o'quvchilarning idrok etish jarayonlarini tahlil qilish va umumlashtirish natijalarini oydinlashtirishdan iborat. Ushbu omillar kognitiv omillar sifatida baholanadi. Eng oddiy topshiriqlar ham o'quvchilar tomonidan kognitiv texnologiyalar vositasida chuqur idrok etilib, katta samaradorlikka erishish imkonini berishi mumkin.

Musiqa asarlari o'quvchi ongi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadigan muhim vositalardan biri bo'lib, undagi badiiylilik, nafosatga undash, ohanglar jozibasi o'quvchilarning hissiy olamiga ta'sir ko'rsatib, ahloqiy sifatlari, estetik didi, madaniy dunyoqarashini rivojlantiruvchi asosiy didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida fikrlash va muloqot qilish ko'lamini kengaytirishga ham erishadilar. Bu jarayonda ularning fikrlash faoliyatlari bosqichma-bosqich takomillashadi. O'quvchilarda kuzatiladigan kognitiv fikrlash faolligi o'ziga xos jarayon bo'lib, unda fikrlashning barcha ko'rinishlari rivojlanadi. Jumladan: o'quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyati, intellekti, diqqat-e'tibori, idroki, xotirasi, muammolarning echimlarini izlab topish ko'nikmalari, yaratuvchanligi va tushunish darajasi. Badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilish natijasida dastlab o'quvchilarda kognitiv tafakkur rivojlanadi. Kognitiv tafakkurning asosini esa hissiy intellekt tashkil etadi. Bu o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini anglashlari va uni boshqara olishlarida namoyon bo'ladi. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarga o'z oldilariga qo'yilgan topshiriqlarga echim topish va hayotiy muammolarni hal qilish kompetensiyasini shakllantirishga ko'maklashadi. Kognitiv intellektning darajasi o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalar va individual xususiyatlariga bog'liq. Kognitiv tafakkuri rivojlangan o'quvchi shaxsi quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- ijodiy faoliyat ko'rsatish;

<https://conferencea.org>

- voqe'likni anglash;
- badiiy-estetik mazmundagi axborotlarni eslab qolish;
- diqqatini bir nuqtaga jamlash;
- g'oyalarni muvofiqlashtirish;
- keng tasavvurga ega bo'lish;
- maqbul qarorlar qabul qilish;
- mantiqiy fikrlash;

Kognitiv texnologiyalar vositasida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga erishadilar:

- favqulotta talantga ega bo'lishi;
- katta hajmdagi axborotlarni qabul qilish ko'nikmasining shakllanishi;
- axborotlarni oson qabul qilishi va tahlil eta olishi;
- ishonchli xulosalar chiqarish va qat'iy qarorlar qabul qilishi;
- topshiriqlarni yechishda nafaqat mantiqiy, balki, ijodiy-kreativ tomondan yondasha olishi;
- vaqtdan unimli foydalanish, foydali faoliyat bilan shug'ullanishga intilishi.

O'quvchilar o'zlarining kognitiv tafakkurini rivojlantira olganlaridagina muayyan ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'qituvchilar o'z tajribalarida xulq-atvorga asoslanilgan "Kognitiv terapiya" (art terapiya) metodiga asoslanishi kerak. O'quvchilarning kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirishda bunday metod samarali hisoblanadi. Bu metodlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar o'quv faoliyatining sifati va kognitiv qabul qilish layoqatlarining darajasi ularning tafakkuri va idrokiga bevosita bog'liq bo'lib, badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallari yordamida uni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

REFERENCES:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. Под ред. В.В.Давыдова. М.: Педагогика, 1991. 480 с.
2. Лурия А. Р. Лекции по общей психологии /. – СПб.: Питер, 2006. – 320 с
3. Запорожец А.В., Парамоновой Л.А. Развивающие зануатиуа с детми 6-7 лет / Под ред. - М.: ОЛМА Медиа Групп, 2008. - 1000 с.
4. Сафарова Р.Г, Мусаев У. ва б. Умумий о'рта та'лим мазмунини модернизациуалашнинг дидактик параметрлари. –Т.: Фан, 2008. – 222 б.
5. Умарова, А. И., & Татаева, Д. А. (2021). Реализация межпредметных связей. использование музыки в образовательном процессе. преподавание биологии. Экономика и социум, (7 (86)), 503-506.

6. Юсупова, Н. Ю. (2023). Аудиовизуальные средства трансляции классического искусства в современной реальности. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 14, 1-4.
7. Юсупова, Н. Ю. (2022). Феномен монтажа в экранном искусстве. *Вестник НУУз*, 1(2), 214-216.
8. Юсупова, Н. Ю. (2022). Творчество и техногенная составляющая в подготовке специалистов для телевидения ташкентского университета информационных технологий. *Экономика, менеджмент, сервис: современные проблемы и перспективы*, 1, 685-688.
9. Арсланова, Г. Д., Панкина, М. С. (2023). Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников. *Муаллим илмий журнали*, 1(3), 409-413.
10. Арсланова, Г. Д., Сытина, Н. В. (2023). Инклюзивное обучение в начальном образовании. *Муаллим илмий журнали*, 1(3), 409-413.
11. Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синф ўқувчиларини таълимнинг кейинги босқичларига тайёрлаш. *МУҒАЛЛИМ*, 6(12), 78-80.
12. Tashpulatova, D. M. (2021). Primary School Teachers Professiogram. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 11-15.
13. Жабборова, О. М., & Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич таълим методикаси. *Экономика и социум*, (10 (89)), 1358-1360.
14. Хамракулова, М. М. К., & Коканбаев, И. И. (2022). Билингвальное обучение на уроках химии, как средство повышения качества образования. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 780-783.
15. Kukanbaev, I. I., & Sheralieva, Y. B. (2021). Using independent work to improve the effectiveness of teaching the topic "Halogens" in the school chemistry course. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(4), 172-176.
16. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Temir yo'l transportini rivojlantirishning moliyaviy siyosatining tahlili va tamoyillari. *Экономика и социум*, 9(88), 893-896.
17. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish tamoyillari. *Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 972-977.
18. Akhrolovich, N. R., Madiyarovich, S. S., & Muradbekovich, A. D. (2021). Determination of Possible Sowing Terms in the Growth of Early, Middle and Late Ripening Varieties of Khorezm Melons. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 10175-10190.

19. Nizomov, R. A. (2020). Selection of promising varieties of okra (*hibiscus esculentus* l.) from non-conventional vegetable crops. *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ*, 1(1), 99-103.
20. Ahrolovich, R. N., Urinbaevana, M. H., & Madiyarovich, S. S. (2020). Melon and its environmental characteristics. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 480-490.
21. Ismailov, M., Ziyadullaev, D., Muhamediyeva, D., Gazieva, R., Dzholdasbaeva, A., & Aynaqulov, S. (2023). Intelligent algorithms of construction of public transport routes. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 01002). EDP Sciences.
22. Ziyadullaev, D., Muhamediyeva, D., Abdullaev, Z., Aynaqulov, S., & Kayumov, K. (2023). Generalized models of a production system of fuzzy conclusion. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 01019). EDP Sciences.
23. Калдыбаева, Д. О. (2021). Методы и технологии обучения. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1379-1385.
24. Калдыбаева, Д. (2021). Постмодернизм как теоретико-литературная проблема. феномен творчества в. пелевина. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 378-385.
25. Kaldibayeva, D. O. (2020). Talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik omillari. *Science and Education*, 1. Special, (3), 119.
26. Ташмухамедова, Г. Х. (2021). Медиацентр университета как база для создания нового цифрового контента. *Современное образование (Узбекистан)*, (2 (99)), 24-28.
27. Nazirov, S. H. A., Erzhonov MO, Tashmukhamedova G. KH., Tuychiyev BO *Metody postroyeniya uravneniy ob" yektov fraktal'noy geometrii. Voprosy vychislitel'noy i prikladnoy matematiki. Vyp 130. Tashkent, 2014.*